

7-SINF ONA TILI DARSLIGIDA "TUTILMAY GAPIRAMAN" MAVZUSINI O'QITILISHI.

Azamatova Gulsanam Turdali qizi

SamDU Kattaqo'rg'on filiali 3-bosqich talabasi.

Ilmiy rahbar: Djakbarova Mahliyo

SamDU Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada darslikda bu mavzuning o'qitilishi va kamchiliklar va mavzu yuzasidan topshiriq va mashqlar tahlil qilib o'rganiladi. Ushbu mavzu dolzarbligi bilan ham farq qilaqiladi. Odhol emas dolzarbligi bilan ham faqr qiladi bu mavzu chunki hozirgi kunda nutq so'zlash o'quvchikarda qiyinchilk tug'diradi.*


Kalit sòzlar: *Chiroyli va mazmunli nutq qilish • ravon so'zlash • taqdimot tayyorlash • talaffuz qoidalari • gap urg'usi • egalik shakllari*

Nutq o'quvchilar tafakkurini o'stirishda muhim vositadir. Nutq fikrini bayon etish vositasigina bo'libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o'stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat sistemasini egallash asosidagina nutqni muvafaqqiyatli o'stirish mumkin. Shuning uchun o'quvchilar nutqini o'stirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga oidini tanlash, joylashtirish, mantiqiy operatsiyalarga katta ahamiyat beriladi.

7- sinf ona tili darsligida berilgan "Tutulmay gapiraman" mavzusi uchun 4 soat ajratilgan. Bunday grammatik topshiriqlar asosida talaffuz qoidalari, gap urg'usi egalik shakllarining nutqda qanday qo'llash kerakligi haqida tushunchalar berilgan. Bu nutq so'zlash ya'ni gapirish kompetensiyasiga asoslangan. Bu mavzuni adabiyot, jurnalistika, va bir qancha sohalar bilan bog'lab tushuntirish mumkin. Chunki so'z so'zlash san'at darajasidagi mahoratni talab qiladi. Qayrda qanday so'zlash kerak, nimalarni aytish yoki aytmalik lozim, barchasi shu kompetensiya zahirida shakllangan.

Ona tili darslarida o'quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar: ular kuzatishni, o'ylashni va ko'rganlari, eshitganlari, o'qiganlari haqida to'g'ri bayon qilishni o'rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug'atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni to'g'ri tuzishni o'rgatadi.





Nutqning mantiqan to'g'ri, aniq va izchil bo'lishi. Nutqda har bir fikr mantiqan asoslangan bo'lsagina, uning ta'sirchanligi ortadi. Bu har bir o'quvchidan narsa, voqea-hodisaga sinchkovlik bilan qarash, ularning har biriga to'g'ri baho bera olish, shu yo'l bilan nutqni muntazam va izchil qurish, uni isbotlay bilishni talab etadi. O'quvchi fikrni bayon etayotganda bir fikrni ikkinchisi bilan mantiqan to'g'ri bog'lay olishi, mavzuga aloqador bo'lgan asosiy fikrlarni ikkinchi darajali fikrlardan farqlay bilishi, qaytarilgan takror fikrlarga yo'l q'ymasligi kerak.

Eng avvalo darslikda berilgan matnni ko'rib chiqsak. Ayrim bolalar o'ta tortinchoq bo'lib, ko'pchilik orasida so'zlashdan, fikrlari atrofdagilar tomonidan qabul qilinmay, izza bo'lishdan cho'chishadi. Ular doskaga chiqarilganda yoki tug'ilgan kunda tabrik uchun so'z berilganda terlab ketishadi. "Lom-mim" deyolmay hatto yig'lab yuboradigan tengdoshlarimiz ham bor. Bu holat ilmiy tilda peyrofobiya deb ataladi. Xatolarimiz uchun koyishlaridan, do'stlarimiz oldida kamchiliklarimizni aytib tanqid qilishlaridan, keyin ustimizdan kulib yurishlaridan hadiksirash esa atihifobiya deyiladi. O'z xohish-istaklarini, fikrini boshqalarga ayta olmaydigan bolalarda aybdorlik va nuqsonlilik komplekslari kuchli rivojlangan bo'ladi. Agar siz o'zingizda shunday qo'rquv alomatlarini payqagan bo'lsangiz, darhol kundalik tuting. Fikrlaringizni tushirib, eng yaqin do'stingizga bering va mulohazalarini sizga aytib borishini iltimos qiling. Unutmang, o'z fikringizni ochiq bayon etish huquqingiz bor. Garchi uni qabul qilmasalar ham o'z ovozingiz, o'ringiz borligini bildirib qo'ying. Ushbu matnda anglashtiladiki o'quvchilarda nutq so'zlash qiyinchilk tug'diradi uni oldini olish uchun ham ular bilan alohida shug'uullanish kerakligini ko'rishimiz mumkin.


Nutq o'stirish nima? Nutq o'stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi, bog'lanishli nutqni) aktiv amaliy o'zlashtirish tushuniladi.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek, o'quvchilar nutqini o'stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki va yozma bayon xohishi va zaruriyatni yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi.





3. Fikr tinglovchi tushunadigan so'z, so'z birikmasi, gap, nutq oborotlari yordamida ifodallasagina tushunarli bo'ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning uchinchi sharti -nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

Ushbu usullarda ham o'quvchi nutqini ma'lum darajada rivojlantrishga yordam beradi.

O'quvchilar nutqiga qo'yilgan talablar. O'quvchilar nutqini o'stirishda aniq belgilangan bir qator talablarga rioya qilinadi.

1. O'quvchilar nutqi mazmundor bo'lsin.

2. Nutqda mantiqiylik bo'lsin.

3. Nutq aniq bo'lsin.

4. Nutq til vositalariga boy bo'lsin.

5. Nutq tushunarli bo'lsin.

6. Nutq ifodali bo'lsin.

7. Nutq to'g'ri bo'lsin.


Qonun qoidalarga amal qilgan holda ham shaklan ham mazmunan to'g'ri tuzilgan nutq bilamizki ta'sirli va samarali bo'ladi.

Mavzuda quydagi topshiriq uyga vazifa sifatida berilgan .Gap urg'usi haqidagi qoidalarga amal qilgan holda quydagi berilgan matnni audio shakilga aylantiring. O'quvchilar bu topshiriq asosida gap urg'usi nima ekanligi haqida ma'lumotlarga ega bo'lib, audio tayyorlab kelishadi. Gap urg'usi nima? Gap urg'usi yoki logik urg'u. Ovozni kuchaytirish yoki ko'tarish yordamida gap tarkibidagi biror-bir so'z ajratib talaffuz etiladi.

Gapda ajratib talaffuz etish hodisasi gap urg'usi yoki logik urg'u deb ataladi. Logik urg'u tufayli gap turli xil mazmunga ega bo'ladi.

Logik urg'u yordamida mantiqiy tomondan muhim va butun e'tiborni qaratish kerak bo'lgan so'z ajratib talaffuz etiladi. Logik





urg'u gapdagi har bir so'zga tushishi mumkin. Logik urg'uning ifodalanishi dunyo tillarda turlichadir. Masalan, rus tilida urg'u tushgan so'zdagi so'z urg'usi y ana ham kuchliroq talaffuz qilinadi. Fransuz tilida logik urg'u olgan so'zning birinchi bo'g'ini so'z urg'usini oladi. O'zbek tilida logik urg'u olgan so'z kesimdan oldingi o'ringa ko'chiriladi. Masalan: Akam Moskvadan bugun heldi (kecha emas, bugun). Akam bugun Moskvadan keldi (Toshkentdan emas, Moskvadan). Bugun Moskvadan akam keldi (do'stim emas, akam). Nutqning ohangdorligi intonatsiya deb ataladi. Gap ohangi turli vazifalarni bajaradi. Masalan, uning eng muhim vazifalaridan biri sintaktik funksiyasi hisoblanadi. Bunda ohang yordamida tasdiq, savol, hayajon kabilar ifodalanadi. Intonatsiya yordamida so'z birikmasi, gapga tegishli yoki tugallanmagan gapning bir qismini aniqlash mumkin.

Mavzu asosida egalik shakllari ham tushuntirib o'tilgan Egalik shakllari. Egalik va kelishik shakllari uslubiyati

O'zbek tilida egalik va kelishik qo'shimchalari boshlang'ich sinfdan boshlab o'rganiladi.

Otlarni boshqa so'zlarga tobelantirib bog'lash uchun xizmat qiladigan shakllar ularning munosabat shakllari hisoblanadi. Bularga otlarning egalik, kelishik shakllari, bog'lamalar kiradi. Otlarning egalik va kelishik shakllarini olib o'zgarishi turlanish deyiladi.

Otlarning uch shaxsdan biriga qarashli ekanligini bildiruvchi qo'shimchalarga egalik qo'shimchalari deyiladi.

Egalik qo'shimchasini olgan ot, albatta, o'zidan oldingi otning qaratqich kelishigida kelishini talab qiladi.

Unli bilan tugagan otlarga -m,-ng,-si,-miz,-ngiz,-i egalik qo'shimchalari qo'shiladi. Undosh bilan tugagan otlarga -im, -ing,-i,-imiz, -ingiz, -iegalik qo'shimchalari qo'shiladi.

Bir shaxsga mansub bo'lgan egalik qo'shimchalari birlik va ko'plikni ifodalash bo'yicha o'zaro farqlanadi.





Shaxs-son Birlik Ko'plik

1-shaxs bolam, uyim bolamiz, uyimiz

2-shaxs bolang, uying bolangiz, uyingiz

3-shaxs bolasi, uyibolalari, uylari

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursunov, Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov. Ona tili. Umum o'rta ta'lim darsliklari 7-sinf. Toshkent 2022.

2. R. Sayfullayeva "Hozirgi o'zbek tili" Toshkent 2010.

3. Ziyouz.com

